



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 4-aprel, shanba,
30 (24.210)-son

O'zbek xalq
maqoli

Har
kimning
o'z eli -
o'ziga shirin



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

Prezident qaroriga ko'ra

“Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi ana shu ezgu g'oya asosida nishonlanadi

Bu Prezidentimizning 1-aprel kuni qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarorida belgilandi.

Shuningdek, qarorga ko'ra, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari, sportchilar, jamoatchilik vakillaridan iborat badiiy-ijodiy guruhlar tuziladi hamda ular ishtirokida aprel – sentabr oylari davomida respublikamiz bo'yab keng ko'lamdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ijtimoiy loyihalarni o'z ichiga olgan “Mustaqillik to'yi” (festivali) tadbirlari o'tkaziladi.

Milliy mustaqillik va suverenitet g'oyalarini, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari qiyofasini o'zida aks ettirgan “Vatan fidoyilari” ramziy monumenti yaratiladi. Ushbu monument Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tuman va shaharlarda 2026–2030-yillarda barpo etilayotgan umummilliy birdamlik bog'larining markaziy qismida o'rnatiladi.

Har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari va erishilgan yutuqlarga bag'ishlangan “Mustaqillik zafar-nomasi” maxsus kitob-albomi tayyorlanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda #Mustaqillik35, #Uzb35 xeshteglari ostida targ'ibot aksiyalari (fleshmoblar, podkastlar, viktorina va boshqalar) o'tkaziladi.

“35 yillik Istiqlol yilnomasi” ruknida mustaqilligimizning tarixiy bosqichlari, erishilgan yutuqlar va bunyodkorlik ishlarini yorituvchi turkum hujjatli filmlar, ko'rsatuvlar tayyorlanadi.

2026-yil avgust oyida Toshkent shahrida “Mustaqil O'zbekiston – 35 yillik taraqqiyot yo'li: islohotlar, natijalar va istiqbol-lar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkaziladi.

Avqust–sentabr oylarida xorijdagi vatandoshlar va o'zbek diasporasi vakillari ishtirokida “Mustaqil O'zbekiston – g'ururim, iftixorim” shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

“Mustaqillikning 35 yilligi” esdalik oltin tangasi zarb etiladi.

Yangi tashkil etilgan mahallalardan hamda temir yo'l stansiyalaridan biriga “Mustaqillikning 35 yilligi” nomi beriladi.

Viloyat hokimi Adiz Boboyev boshchiligidagi delegatsiya shu kunlarda Malayziyada xizmat safarida bo'lib turibdi.

Viloyat hokimligi axborot xizmatining ma'lum qilishicha, vakillarimiz Kuala-Lumpur shahrida hukumat a'zolari va hududlar rahbarlari bilan qator muhim uchrashuvlar o'tkazdi.

Jumladan, Malayziya turizm, san'at va madaniyat vaziri Dato Sri Tiong King Sing bilan muloqotda tomonlar o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga kelishib oldilar.

Samarqandda yaqinda yangidan bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasi, bu yerda

Samarqandda “Malayziya madaniyat kunlari” o'tkaziladi



ziyoratchilar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berilib, bu yerga sayyohlar oqimini ko'paytirish hamda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari ko'rib chiqildi. Turizmga investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, qo'shma tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, madaniy aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan aniq takliflar ilgari surildi.

Uchrashuvda joriy yilning may oyida Samarqandda “Malayziya madaniyat kunlari” hamda sentabr oyida Kuala-Lumpurda “O'zbekiston madaniyat kunlari”ni o'tkazishga kelishib olindi.

BMT turizm tashkiloti bosh kotibi Samarqandda bo'ldi



Mamlakatimizga tashrif buyurgan BMT turizm tashkiloti bosh kotibi Shayxa Nosir Al Novays xonim kecha Samarqandda bo'ldi. Yuqori martabali mehmon dastlab Samarqand shahrida o'z rahbarlik qilayotgan tashkilot bilan hamkorlikda ilk bor tashkil etilgan “Ipak yo'lida turizm” tematik ofisining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

Marosimda Shayxa Nosir Al Novays hamda O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi raisi Abdulaziz Aqqulov so'zga chiqib, ushbu tematik ofis tarixiy ipak yo'li bo'yab turizmni rivojlantirish, madaniy merosni asrash va turizm sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishga xizmat

qilishini ta'kidladilar.

Shundan so'ng tadbir qatnashchilari ushbu muassasa bilan yonma-yan joylashgan xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kam-pusi faoliyati bilan tanishdilar.

Shayxa Nosir Al Novays xonim ishtirokida akademiyaning “Mehmondo'stlik boshqaruvi” o'quv dasturini muvaffaqiyatli tugatgan 20 nafar bitiruvchilariga xalqaro sertifikatlarni tantanali topshirish marosimi ham o'tkazildi.

Bosh kotib xonim “Ipak yo'li” xalqaro turizm va madaniy meros universitetida talabalar bilan uchrashdi. Uchrashuvda turizm sohasidagi innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik istiqbollari va kasbiy rivojlanish masalalari muhokama qilindi. Talabalar o'z taklif va tashabbuslarini bildirib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar.

Samarqandga tashrif davomida Shayxa Nosir Al Novays Konigil turizm qishlog'ida bo'lib, qadimiy Samarqand qog'ozini ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi. Shuningdek, tarixiy-madaniy yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni tomosha qildi.

Baxtiyor MUSTANOV.

“YASHIL MAKON”

Munosabat

kelajak uchun ekilayotgan hayot daraxti

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda yana bir xayrli va ezgu tashabbusga asos soldi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida ishtirok etib, Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berdi.



Bu tashabbus nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun ham beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan ulkan ekologik harakatdir. Zero, ko'chat ekish nafaqat dunyoviy, balki diniy jihatdan ham yuksak savobli amal hisoblanadi. Islom ta'limotida tabiatni asrash, yerga g'amxo'rlik qilish va daraxt ekish katta fazilat sifatida ulug'langan. Payg'ambarimiz hadislarida shunday deyiladi: “Agar bir musulmon daraxt eksa yoki ekin ekib, undan inson, qush yoki hayvon iste'mol qilsa, bu unga sadaqa bo'ladi”. Bu hadisdan ko'rinib turibdiki, daraxt ekish doimiy savob manbai bo'lib, inson hayotidan keyin ham uning savobi davom etib turadi.

Qolaversa, daraxtlar atrof-muhit uchun beqiyos ahamiyatga ega. Ular havodagi zararli gazlarni yutib, kislorod ajratadi, iqlimni yumshatadi, tuproqni mustahkamlaydi va chang-to'zonni kamaytiradi. Shu bilan birga, daraxtlar inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, toza havo manbai bo'lib xizmat qiladi, ruhiy xotirjamlikni ta'minlaydi va hayot sifati yaxshilanishiga hissa qo'shadi.

Shu jihatdan samarqandliklar Prezident tashabbusini qo'llab-quvvatlab, So'lim qo'rg'onining Yashil texnikum hududidagi 5 gektar maydon-da Samarqand dendrologiya bog'ini tashkil etdi. Ushbu tadbirda viloyat hokimligi va keng jamoatchilik vakillari faol ishtirok etib, 2500 tup ko'chat ekildi.

Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunday xayrli ishlar xalqimiz ongida tabiatga mehr, ekologik madaniyat va mas'uliyatni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi sabab yurtimiz

yashillikka burkanmoqda. Jumladan, viloyatimizda ham tabiatni asrash, havo musaffoligini ta'minlash, iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirini kamaytirish va yashil hududlarni kengaytirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Birgina o'tgan yilning kuz mavsumida viloyatimizda qariyb 10,4 million tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazilib, ekilgan ko'chatlarga mas'ullar birlashtirildi. Barcha shahar, tumanlarda “Yashil belbog'lar”, “Hokimlik bog'lari” hamda soylali-sayil ko'chalari barpo etildi.

Joriy yil bahor mavsumida viloyatimizda 7 million tupga yaqin mevali- manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekish ishlari olib borilmoqda. Buning uchun 10 ta o'rmon xo'jaligi hamda xususiy sektorlar tomonidan 13 million tupdan ortiq ko'chat zaxirasi tayyorlandi. Hududlarda arzonlashtirilgan ko'chat yarmarkalari tashkil qilinmoqda. Tumanlardan “Mening bog'im” loyihasi doirasida 57 ta yer maydoni (54,2 gektar) takliflari olinib, vazirlikka taqdim qilindi. Rejalashtirilgan “Yashil bog'”, “Yashil belbog'” va “Soylali-sayr” ko'chalar barpo qilish ishlariga kirishilmoqda. Jumladan, Paxtachi tumani Bo'ston mahallasida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida uch ming tup manzarali ko'chat ekildi. Kattaqo'rg'on tumanidagi Melixo'ja mahallasidan o'tuvchi temir yo'l yoqasida loyiha doirasida yashil belbog' barpo etish maqsadida hashar yo'li bilan 10 gektar maydonda 12 ming tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Akram HAYDAROV, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari.

Iqtisodiy hayot:

chorak tahlili va istiqboli

Joriy yilning yanvar–mart oylari viloyatimiz iqtisodiyoti uchun sinovli va tahliliy jihatdan muhim mezon bo'ldi. Zero, metodik hudud bo'lishi belgilangan hududimizda barcha sohalarda ulkan rejalarda ko'zda tutilgan. Bu esa har bir sohada belgilangan vazifalar ijrosini izchillik bilan monitoring qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning oldini olishni taqozo etadi.

Viloyat hokimligida sanoat, xizmat ko'rsatish, chakana savdo, qurilish va qishloq xo'jaligi sohaslarida belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilish holati va kamchiliklar tahlil qilindi.

SANOAT RIVOJLANISH SUR'ATI YETARLIMI?

Sanoat sektori viloyat iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Joriy yilning yanvar–mart oylari uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish prognoz rejasi 13 trillion so'm etib belgilangan. Bunda o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 foizni tashkil etishi kutilgan edi. Amaliy hisobotlar bu ko'rsatkichlarning 13,3 trillion so'mga yaqinlashganini ko'rsatdi. Bu umumiyda ijobiy yakun sifatida baholalanadi, biroq tahlillar ba'zi tumanlarda rejalarda bajarilmagani xavfini ko'rsatmoqda.

Misol uchun, Jomboy tumanida sanoat hajmi 76 milliard so'mga bajarilmagani mumkin. Buning asosiy sababi 1 ta yirik korxonada 54,4 milliard so'm va 13 ta kichik korxonada 17,3 milliard so'mga ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan.

Bundan ko'rinadiki, yirik va kichik korxonalar ishlab chiqarish hajmidagi farq prognoz rejalarda bajarilishida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Viloyat hokimi o'tkazgan yig'ilishda sanoat sektorining ustuvorligi va barqaror o'sishi uchun mahalliy hokimlik va biznes bilan hamkorlikda ishlab chiqarish hajmini nazorat qilish, talab va imkoniyatlarni aniqlash zarurligi qayd etildi. Ta'kidlanganidek, bu nafaqat rejalarda bajarilishini ta'min-

laydi, balki viloyat iqtisodiyotining rivojlanishini tezlashtiradi.

IXKIMAT KO'RSATISH: IMKONIYAT VA TAHIDLAR

Viloyat iqtisodiyotidagi eng muhim yo'nalishlardan biri - xizmatlar hajmi birinchi chorakda 18,4 trillion so'mni tashkil etishi, o'sish sur'ati esa 115,9 foiz bo'lishi prognoz qilingan. Tahlillarga ko'ra, 0,5 bandog yoki 500,9 milliard so'mga bajarilmagani xavfi yuzaga kelgan.

Bu holatning asosiy sababi statistik kuzatuvdagi 68 ta yirik korxonaning nol hisobot topshirganidir. Jumladan, Samarqand shahrida 28 ta, Urgutda 8 ta, Past Darg'omda 7 ta, Payariqda 5 ta, Bulung'urda 4 ta, Jomboy, Kattaqo'rg'on va Samarqand tumanlarida 3 tadan, Oqdaryo, Paxtachi va Nurobod tumanlarida 2 tadan, Toyloq tumanida 1 ta korxonaga hajmsiz hisobot taqdim etgan.

Shuningdek, 56 ta yirik korxonaga xizmatlar hajmini o'tgan yilga nisbatan 61 milliard so'mga kamaytirgan. Masalan, Samarqand shahrida joylashgan “Toxir” mas'uliyati cheklangan jamiyatida savdo xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 793 million so'mga kamaygan.

Statistik kuzatuvdagi kichik biznes korxonalarida ham 33 ta korxonaga hajmsiz hisobot topshirgan, 11 ta

korxonada 407 milliard so'mlik xizmatlar hajmini kamaytirgan.

Bu holat shahar va tuman hokimlari, ayniqsa, birinchi o'rinbosarlar tomonidan xizmatlar sohasida ish samarali tashkil etilmayotganidan dalolat beradi. Shuning uchun har bir korxonaga individual ishlash va xizmatlar hajmini prognoz ko'rsatkichlari asosida ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

CHAKANA SAVDO HOLATI QANDAY?

Chakana savdo aylanmasi viloyat iqtisodiyotining dinamikasini aks ettiradi. Yanvar–mart oylarida aylanma hajmi 9,7 trillion so'mni tashkil etishi, o'sish sur'ati esa 109,6 foiz bo'lishi prognoz qilingan. Statistik kuzatuvdagi 33 ta yirik korxonada savdo aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 99,5 milliard so'mga kamaygan. Jumladan, Samarqand shahrida 10 ta (52,6 milliard so'm), Bulung'urda 4 ta (16,5 milliard so'm), Samarqand tumanida 3 ta korxonada (30,3 milliard so'm) savdo aylanmalari pasaygan.

Qurilish sohasi viloyat iqtisodiyotida investitsiyalarning muhim ko'rsatkichi bo'lib, yangi obyektlar barpo etish va infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Yanvar–mart oylarida qurilish ishlari hajmi 3 350,7 milliard so'm belgilangan. Amalda 3,4 trillion so'mga, ya'ni 115,7 foizga bajarilishi kutilmoqda.

Biroq Oqdaryo, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Nurobod va Urgut tumanlarida prognoz ko'rsatkichlarni bajarilmagani ehtimoli yuqori.

Yig'ilishda sohalardagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun hokimlik va korxonalar hamkorligi zarurligi ko'rsatib o'tildi. Ishlab chiqarish va xizmatlar hajmini nazorat qilish, hisobotlarni aniq va to'liq topshirish hamda har bir loyihani reja asosida bajarish viloyati iqtisodiyoti barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Y.MARQAYEV tayyorladi.

YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qilinib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunali va metodik" hududga aylantirilmoqda.

XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

Tumanda joriy yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida umumiy qiymati 144,0 milliard so'mlik 3 ta yirik sanoat loyihalari ishga tushiriladi hamda mavjud sanoat korxonalarining to'liq quvvatda ishlashi taminlanadi. Xususan, "Al-Muin Barokat" 70 milliard so'm, "K-Eldor" fermer xo'jaligi – 50 milliard so'm, "Iskandarov parranda" MChJ 24 milliard so'mlik loyihalarni amalga oshiradi.

Xizmat ko'rsatish hajmini oshirish maqsadida umumiy qiymati 77,4 milliard so'mlik 5 ta yirik loyiha ishga tushiriladi hamda mavjud savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarining to'liq quvvatda ishlashi taminlanadi. Misol uchun, "JUMA MALL", "PAST-DARG'OM MALL", "SHOX SAROY GROUP", "INDRA BONDED E-COMMERCE SERVICES", "TEMIROVICH PERFECTBUILDING" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari loyihalari hayotga tatbiq etiladi.

Juma shaharchasi va Oltiqahramon mahallalari infratuzilmasini yaxshilash orqali aholiga qulayliklar yaratiladi hamda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlar kengaytiriladi. Natijada 336 nafar aholi bandligi taminlanadi. Juma shaharchasida 22 ta loyiha va 216 ta yangi ish o'rni yaratish, Oltiqahramon mahallasida 5 ta loyiha va 120 ta yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan.

PAST DARG'OM TUMANI



Kambag'allik darajasi 3,8 foizdan 2,3 foizga tushiriladi va kambag'allik reestrada turgan 5760 oila a'zolarini barqaror bandlik xizmatlari bilan qamrab olish rejalashtirilgan.

Tumanda joriy yilda 8264 nafar fuqaroni doimiy

ishga joylashtirish uchun sohalar va yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatkichlar tasdiqlandi.

"Teng imkon - inkluziv bandlik" dasturi bo'yicha 357 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar bandligi ta'minlanadi. 328 million so'm subsidiya, ssuda va

grantlar, 1508,0 million so'm bank kreditlari ajratish orqali 357 nafar nogironligi bo'lgan fuqaroni ishga joylashtirish rejalashtirilgan.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida 1730 ta aholi xonadoniga regulyator o'rnatish ko'zda tutilgan. 6,6 kilometr gaz quvurlarini mukammal ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, 6 ta gaz taqsimlash punktini mukammal ta'mirlash va modernizatsiyalash rejalashtirilgan.

Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga 5 ta uy-joy beriladi.

5 ta mahalla binosi yangidan quriladi, 14 ta mahallada 710 dona tungi chiroq o'rnatiladi, 100 ta mahallada 155 kilometr ichimlik suvi tarmog'i ta'mirlanadi.

Tumandagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami faoliyatiga yangi model joriy etiladi. Bunda 1-tip va 2-tip oilaviy poliklinikalar tuzilmasi aholi soniga muvofiq ravishda qayta shakllantiriladi. 30 yoshdan oshgan aholi o'rtasida yurak va bosh miya kasalliklari bo'yicha skrininglar o'tkaziladi.

2 ta yangi xususiy tibbiyot muassasasi tashkil etiladi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" da g'olib va sovrindor bo'lgan mahallalarda 2 ta sport maydonchasi barpo etiladi. 1-son sport maktabiga qarashli 2-sport majmuasi qayta rekonstruksiya qilinadi, 2-sport maktabida dzudo hamda kurashga mo'ljallangan sport zal quriladi.

Keyingi yillarda viloyatimiz aholisi sonining oshirish ortishi, yangi turarjoy massivlari barpo etilib, shaharlar va aholi punktlarining kengayishi energiya va yer osti resurslarini tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etishga olib kelmoqda. Ayniqsa, suv inshootlari va tarmoqlarini modernizatsiya qilish orqali aholini toza suv bilan ta'minlash tizimini tubdan yaxshilash taqozo etmoqda.

Ko'pqavatli uyda oqova tarmog'isiz yashab bo'lmaydi

Bugungi kunda Samarqand tumanida yashovchi 278,8 ming aholining 94 foizi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Ularning 113 ming nafariga "Samarqand suv ta'minoti" AJ tuman filiali, aholining 44 foiziga esa korxonaning Samarqand shahar filiali tomonidan xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Shuningdek, tog' va tog'oldi mahallalarda yashovchi 80,7 mingdan ziyod aholiga esa muqobil suv inshootlaridan, jumladan, buloq va qo'lbola artezian quduqlardan olinadigan suvdan foydalaniladi.

Hozirda tumanimiz hududidagi mahallalarda 226 ta suv inshooti mavjud, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" AJ tuman filiali boshlig'i Manuchehr Qutfidinov. - 159 ta ichimlik suv inshootlaridan 35 tasi, 375 kilometr ichimlik suvi tarmog'idan qariyb 46 kilometri ta'mirlab ahvolga kelib qolgan. Ak-sariyati o'tgan asrning 50-60-yillarida qurilgan suv inshootlari va tarmoqlarining texnik davriy muddati allaqachon o'tab bo'lingan. Ushbu inshootlar va tarmoqlar bosqichma-bosqich davlat dasturlari va boshqa dasturlar doirasida rekonstruksiya qilinib kelinmoqda.

Tumanda 64 ta mahalla aholisi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan, 10 tasi esa muqobil manbalardan, jumladan, buloq, chashma quduqdan suv olishadi. Jumladan, Mironqul, Ohalik, Ilonsoy hududlarida joylashgan mahallalarni ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida davlat dasturlari doirasida suv inshootlari va tarmoqlari qurilmog'ida.

Bugungi kunda tumandagi 30 ta mahallada yashovchi 84 ming nafar aholi xonadonlari oqova suv tarmog'iga ulangan bo'lib, ta'minlanish darajasi 29,7 foizni tashkil etmoqda.

Keyingi yillarda tuman hududida ko'pqavatli uylar ham, aholi soni ham ortib bormog'ida, - deydi M.Qutfidinov. - Hozirda 78 ta ko'pqavatli uyning 73 tasi markaziy suv oqova tarmog'iga ulangan. Shuningdek, tuman tibbiyot birlashmasi, 3-son tug'ruq majmuasi, bir qator korxonalar hamda tuman dehqon bozorlari markaziy suv oqova tarmoqlariga

ulangan.

Biroq Parrandachilik mahallasida 1 ta hamda O'rta shahar mahallasi hududidagi 4 ta ko'pqavatli xonadonlarda yashovchi aholi markaziy suv oqova tarmog'i bo'lmaganligi sababli oqova quduqlaridan foydalaniladi. Boshqa hududlardagi ko'p kvartirali uylarda yashovchi aholi ham kanalizatsiya tarmoqlaridagi nosozliklardan aziyat chekib kelmoqda.

Ikki yildirki, tuman markazi - Gulobodda joylashgan ko'pqavatli uylarning birida yashaymiz, - deydi Roziya Rahmonova. - Qulayliklari ko'p ekan, issiq suv, tabiiy gaz va elektrdan kamchilik yo'q, ammo kanalizatsiya muammosi hal bo'lmayapti. Suv oqova tarmoqlari noto'g'ri o'rnatilgan shekilli, darrov tiqilib qoladi. Hidiga chidab bo'lmay qoladi. Har oy santexnik ustalarni chaqirib turmasa bo'lmayapti. Mutasaddilarga qancha murojaat qilmaylik, faqat muammo yechilmayapti.

Aholiga qulay ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish maqsadida ichimlik suvi yetkazib berish bilan bir qatorda suv oqova tarmoqlari va tozalash inshootlarini ham samarali ishlashini yo'lga qo'yish kerak. Ko'pqavatli uylarda kanalizatsiya muammolari hal etilmasa bo'lmaydi. Bunga ba'zida shu uylarda yashovchi aholining o'zlari sababchi bo'lishadi. Kanalizatsiyaga bolalar tagliklari, qog'oz, plastik chiqindilardan boshlab, yomg'ir suvlari, uydan chiqayotgan oqovalar, xullas nima keraksiz bo'lsa hammasi tashlanadi. Tabiiyki, suv tozalovchi uskunalarning quvvati chiqindilarni tozalashga yetmaydi. Buning oldini olish uchun avvalo, aholining ekologik madaniyatini shakllantirishimiz zarur.

Dilmurod TO'XTAYEV,
"Zarafshon" muxbiri.

KOICA da o'qiganlar to'liq ish bilan ta'minlanadi

O'zbekiston bilan Janubiy Koreya hukumatlararo kelishuvida beshta kasb-hunarga o'qitish kelishuvi bo'yicha shartnoma imzolangan. Shunga ko'ra 2012-yilda Toshkent shahrida, 2016-yilda Samarqand shahrida, 2018-yilda Shahrisabzda, 2021-yilda Farg'ona shahrida KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) kasb-hunarga o'qitish markazlari ochilgan. Samarqand shahridagi KOICA kasb-hunarga o'qitish markazining qurilishiga Koreya xalqaro hamkorlik agentligi tomonidan 6,5 million dollar sarflangan va o'quv ma'muriy, laboratoriya va yotoqxona binolari qurilgan. Qurilishdan tashqari barcha jihozlar Koreyadan keltirilgan. Shuningdek, o'qituvchilar Koreyada ikki oy malaka oshirib kelgan hamda koreyalik o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'quv rejalar va darsliklar tayyorlangan.

O'quv markazi ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitadi va ularni ish bilan ta'minlashga yordam beradi. Markazga ishsiz fuqarolar bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan yo'llanma asosida yuboriladi. Fuqaroning kasbi bo'lmasa yoki kasbini o'zgartirishni istasa, ushbu markazga murojaat qiladi.

Markazda o'quvchilar olti oy kasb-hunar o'rganadi va ikki oy sanoat korxonalarida amaliyot o'taydi, - deydi Samarqand shahridagi KOICA kasb-hunarga o'qitish markazi direktori Ismoil Ergashev. - Yoshlar respublikamizning barcha viloyatlaridan keladi. Shuning uchun boshqa viloyatlardagi korxonalar va tashkilotlar bilan ham shartnomamiz bor, ya'ni ularga mutaxassis tayyorlab beramiz. Har safar 240 nafar o'quvchi qabul qilamiz. Ularni avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, payvandchilik, elektr va elektronika, mashinasozlik texnologiyasi, kompyuter injiniring, kompyuter grafikasi va dizayn yo'nalishlarida o'qitamiz. Ushbu yo'nalishlarga talab ko'p bo'lgani bois bitiruvchilarning yuz foizi ishga joylashadi.

Korxonaning talabiga binoan mutaxassis tayyorlagan markaz bitiruvchisiga talab yuqori bo'ladi. Shuning uchun har olti oyda o'quv reja va darsliklarimizga qo'shimchalar kiritamiz. Buning uchun avval korxonalarda so'rovnomalar o'tkazib, kasb o'rganuvchilarning nimalarni bilishiga qiziqamiz.

Bundan tashqari, Koreyaning Keimyung universiteti va Korea Polytechnics universiteti bilan 1+2 qo'shma dasturlarimiz mavjud. Ushbu dastur bo'yicha tahsil oluvchilar bir yil Samarqandda, ikki yil Koreyada o'qiydi. Bir yil ichida o'quvchilarga kasb-hunar bilan birga koreys tili o'rgatiladi. Koreys tilidan Topik-II olganlar Koreyada o'qishini davom ettira oladi. Xorijda o'qishni tugatganlar E-7 mutaxassis viza bilan Koreya korxonalarida bemaol ishlaydi.

Qo'shma dastur loyihasi bizda 2023-yilda boshlangan, - deydi markaz direktori. - 2024-yilda 10 kishi bitirdi va ulardan 7 nafari koreys tilidan Topik-II olib, Koreyaga o'qishga ketdi. Topik-II ololmaganlar o'zimizda sanoat korxonalariga joylashdi. Koreyaga ketganlar o'qishini bitirib, o'sha yerda



sanoat korxonalarida ishlayapti. 2025-yilda 14 nafar o'quvchi qo'shma dastur asosida Koreyaga yuborildi. Bu yil ham 15 nafardan ortiq o'quvchi ketadi. Hozircha viza va hujjat ishlari olib borilyapti.

Mazkur kasb-hunarga o'qitish markazining laboratoriya binosi va unda o'quvchilarning kasb-hunar o'rganayotgan jarayonlari bilan ham tanishdik. Haqiqatda har bir yo'nalish uchun maxsus xonalar ajratilgan bo'lib, ular eng so'nggi rusumdagi texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

O'quvchilar qaysi dasturni o'rgansa, shu bo'yicha topshiriqlarni bajaradi va ularni o'zining telegram sahifasiga qo'yib boradi, - deydi kasb-hunar ustasi Javlon Hakimov. - Ertaga ular ishga joylashish uchun biror korxonaga borib, ushbu bajarilgan ishlarini ko'rsatadi. Ular kompyuterda yasagan narsalarini amalda ko'rsatadi. Ayrim yoshlar o'qishni tugatib, o'z tadbirkorligini ham ochyapti.

Andijon viloyati Baliqchi tumanidanman, - deydi Azimjon Kamoliddinov. - Yoshim 18 da. Tanishlarimdan ushbu kasb-hunar markazi haqida eshitib, o'qishga keldim va kompyuter grafikasi va dizayn yo'nalishida to'rt oydan beri o'qiyapman. Bu yerda CorelDRAW, Photoshop kabi dasturlarni o'rgandik. Yana ikki oy boshqa dasturlarni ham o'rganamiz, ikki oy amaliyot o'taymiz. Bu yerda kasb-hunar o'rganish bepul. Uzoqdan kelganlar yotoqxona bilan ta'minlanadi.

Markazda nafaqat kasbi yo'qlar, balki oliy ma'lumotli yoshlar ham o'qisharkan.

Jizzax viloyatidan kelganman, - deydi elektr va elektronika yo'nalishi o'quvchisi Javohir Rasulov. - Samarqand davlat universitetining filologiya yo'nalishini bitirganman. Hozirda ushbu markazda hunar o'rganayapman. Shu sohada o'qishimni davom ettirib, zavodlarda ishlashni niyat qilayapman.

Kasb-hunar markazi har olti oyda yangi o'quvchilarni qabul qiladi. Fevraldan yana qabul boshlandi. Bu yerda har bir kasb puxta egallanadi. Buning uchun markazda barcha sharoitlar yetarli. Faqat yoshlarda kasb-hunar o'rganishga ishtiyoq bo'lsa bas.

Xurshida ERNAZAROVA.

Ilm-fan taraqqiyoti jamiyatning intellektual salohiyati, ta'lim tizimi va innovatsion rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ayniqsa, tahliliy kimyo kabi fundamental, amaliy ahamiyatga ega sohalarining rivoji yuqori malakali mutaxassislar, ilmiy maktablar va samarali tadqiqotlar bilan belgilanadi. Ana shunday ilmiy maktab asoschilaridan biri taniqli olim Ochildi Fayzullayev bugun muborak 80 yoshni qarshi olmoqda.

Kimyoviy tahlillar bilimdoni



Ochildi Fayzullayevning ilmiy merosi va ta'limga qo'shgan hissasi kimyoviy tahlil sohasida alohida o'rin tutadi. U 200 dan ortiq ilmiy maqolalar, darslik va o'quv qo'llanmalar muallifi sifatida tanilgan. Uning "Analitik kimyo asoslari", "Analitik kimyo" kabi fundamental asarlari nafaqat talabalar, balki ilmiy izlanuvchilar va amaliyotchi mutaxassislar uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Ustoz malakali tashkilotchi sifatida ham universitet hayotida faol ishtirok etdi. Uzoq yillar analitik kimyo kafedrasini mudiri, fakultet dekani muovini va universitet metodik kengashi rahbari kabi mas'ul lavozimlarda samarali faoliyat yuritdi. Rahbar sifatida faoliyati ta'lim jarayonini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimli tashkil etish, professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishga hissi qo'shdi. Domla namunali oila boshlig'i. To'rt nafar farzandning otasi, o'nlab nevara va chevaralarning sevimli bobosi.

Ochildi Fayzullayevni muborak 80 yoshi bilan tabriklaymiz! Ustozga mustahkam sog'lik, uzoq umr, yana ko'plab ilmiy yutuqlarga erishishini tilaymiz!

Nurali MUHAMMADIYEV, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, Rizamat BEGMATOV, dotsent.

O.Fayzullayev 1946-yilda Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida tug'ilgan. Yoshlik yillaridan tabiiy fanlarga, ayniqsa, kimyoga bo'lgan qiziqishi uni ilmiy izlanishlar sari yetakladi. 1962-yilda Samarqand davlat universiteti kimyo fakultetiga o'qishga kirishi uning hayotidagi hal qiluvchi bosqich bo'ldi.

Universitetda tahsil olish davrida iqtidori, mehnatsevarligi bilan ajralib turgan talaba davlat stipendiyasi sohibi bo'lib, 1967-yilda universitetni imtiyozli diplom bilan tamomladi. Ilk pedagogik faoliyatini Samarqand davlat universitetida boshladi.

Ilmiy faoliyatini chuqurlashtirish maqsadida Moskva kimyo-texnologiya instituti aspiranturasida tahsil olib, kimyo sohasida muhim ilmiy natijalarga erishdi. Uning nomzodlik dissertatsiyasi biamprometrik titrlash usullarini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, suvsiz

Yonimizdagi odamlar

Kishi hamisha ezgu niyat bilan yashab, odamlarga yaxshilik qilishni oliy maqsadga aylantirsa kuch-g'ayrat uni tark etmas ekan. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyining nemis tili fani o'qituvchisi Muhabbat Mahmudova hayoti bunga yorqin misoldir. U butun umrini, aqlu zakovatini, ilmu tafakkurini yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashdek ezgu ishga baxshida etib kelmoqda.

Saksoninchi dovonda ham ziyo ulashib

litsey-internet ochilgach, M.Mahmudova ushbu dargohda o'quvchilarga nemis tili fanidan saboq berib kelmoqda. U mohir pedagog, o'quvchilarning jonkuyar murabbiysi, o'z sohasining bilimdoni va talabchan o'qituvchi. Faoliyati davomida bir necha bor Germaniyada malaka oshirib kelgan.

M.Mahmudova nafaqat pedagogik jarayon bilan, balki jamoat ishlarida ham peshqadamlik ko'rsatdi. Jumladan, institut va litseyning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida, xususan, o'quvchilarni turli sport musobaqalariga tayyorlashda jonbozlik ko'rsatgan. O'zi ham sportning basketbol turi bilan shug'ullanib sport ustosi darajasiga erishgan. Shuning uchun ko'p yillar institut basketbol jamoasiga murabbiylik qildi.

Bundan tashqari M.Mahmudova akademik litseyda nemis tili fanini o'qitish sifatini takomillashtirish va o'qitishning ilg'or zamonaviy usullarini joriy etish, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash va ularni turli ko'rik-tanlovlarga tayyorlashda barchamizga ibrat bo'lib kelmoqda. Keyingi yillarda akademik litseyning 6 nafar o'quvchisi fan olimpiadalarning respublika bosqichida faxrl o'rnlarni egallashida ustozning xizmatlari beqiyos.

Muhabbat Mahmudovaning "Talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarining ahamiyati", "O'quvchilarni oliy talim muassasalariga tayyorlashda grammatikadan mashqlar to'plami", "Nemis tilini o'rganishda matnlar bilan ishlash" kabi o'quv-uslubiy qo'llanmalaridan ta'lim jarayonida keng foydalanilmoqda.



U doim ishda talabchan, intizomli, kamtarin inson ekanligi uchun ham jamoada yuksak hurmat qozongan. Jonkuyar ustoz bugun tabarruk 80 yoshni qarshi olmoqda. Biz, akademik litsey jamoasi butun kuch-quvvati, bilimi va mahoratini ta'lim sohasiga bag'ishlagan teran fikrli ustoz Muhabbat Mahmudovani muborak yoshi bilan qutlab, u kishiga eng ezgu tilaklarimizni bildiramiz.

A.BAROTOV, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi direktori, L.RASULOVA, litsey direktori o'rinbosari.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Muminova Dilfuza Muxtarovnaga (2025-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Sayfullayev Saidaxmatga (2025-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltaevich notarial idorasida marhum Pazilova Salimxononga (2016-yil 23-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltaevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Kuchkarov Berdikulga (2022-yil 28-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Shodiyeva Xosiyatga (2000-yil 16-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Allanov Mahammad Abdullayevichga (2022-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Vose-

iyev Saidmurodga (2026-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Xamrayev Muradulla Imamkulovichga (2020-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Abduraxmonov Abdumannonga (2021-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Atayev Alisher Fatayevichga (2022-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Esirgapov Mingboyga (2016-yil 15-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Jurayev Kuchkar Ikramovichga (2025-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Usarova Aysaraga (2012-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!

Hozirgi kunda Samarqand viloyati hududiga tegishli ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kirilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalar, jumladan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeater) ko'payib ketganligini inobatga olgan holda, Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati o'gohlantiradi:

Mobil kuchaytirgich (repeater)lar O'zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashining 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorining 1-bandida keltirilgan texnik shartlar talablariga mos ravishda o'rnatilgan bo'lishi va boshqa turdagi radioelektron vosita (REV)larga radioalaqitlar bermasligi kerak. Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ularidan foydalanish qat'iy man etiladi.

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarni bajarish hamda mobil aloqa tarmoqlariga xalaqitli ta'sirlar keltirmaslik talablariga majburiy rioya qilgan holda mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va o'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishga (shu jumladan, ularga xizmatlar ko'rsatishga) faqat faoliyat turi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yoki mobil aloqa operatorlari nomidan shartnoma asosida ish yurituvchi yuridik shaxslarga ruxsat etilishi; O'zbekiston Respublikasi hududiga mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos keladigan retranslyator qurilmalarini xorijdan olib kirish, radiochastota organlarining o'rnatilgan tartibda rasmilashirilgan olib kirish ruxsatnomasiga asosan amalga oshirilishi;

Retranslyator qurilmalaridan foydalanuvchilar o'zlari tomonidan foydalanilayotgan qurilmalardan mobil aloqa operatorlari tarmoqlariga radioalaqit hosil bo'lishining oldini olish uchun barcha zarur bo'lgan tashkiliy-texnik choralarini ko'rishlari kerakligi;

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilma-

larini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ularidan foydalanish qat'iy man qilinishi ko'rsatilib o'tilgan.

Viloyat hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kirilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeater)lar o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" (EMMM) MCHJ, Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televideniye va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radioalaqitlarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarni qabul qiladi.

Radioalaqitlarni bartaraf etish ishlari O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" MCHJ Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati o'gohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kirilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatkiqlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatkiqlar vositalari) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

Radioelektron vositalarni respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni rasmilashirish masalalariga yuziga Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Manzil: Samarqand tumani, "Yoshlik" MFY. Telefonlar: 66-616-43-45, 66-616-44-15.

SAMARQAND VILOYATI ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV XIZMATI.



murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Zairov Raxim Amanovichga (2023-yil 20-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Abdul-

iyev Karimga (2012-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Axmedova Djamilia Jurakulovnaga (2024-yil 30-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Temurov Mustafoga (2013-yil 28-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

BEKOR QILINADI Samarqand tumanidagi "SHIRIN SHAXLO 0016" oilaviy korxonasi (STIR: 311088145) dumaloq muhri va burchak tamgasi yo'qolganligi sababli bekor qilingani.

Musulmon Sharqining buyuk mutafakkiri, faylasufi va qomusiy olimi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy ma'naviy merosi jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Chunki uning asarlari shaxsga, inson farovonligiga bag'ishlangani bilan ahamiyatli. Falsafa, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, filologiya hamda tabiiy fanlarni chuqur o'zlashtirgan qomusiy olim ilgari surgan g'oya, fikr va tahlillar bugungi jamiyat taraqqiyotidagi dolzarb muammolar bilan hamohang.

Mutafakkir Sharq xalqlari tillarida ijod qilish bilan cheklanmay, o'z davridagi murakkab va qarama-qarshi g'oyalarni, insonparvar qarashlarni tahlil qilib, ularning asl mohiyatini ochib bergan. Asarlarida insoniylik, ezgulik, do'stlik, falsafiy tafakkur, san'at va davlat tuzilishi kabi masalalarni tadqiq etadi. Xususan, "Fozil shahar ahlining qarashlari haqida risola", "Fazilatli xulqar", "Buyuk kishilarning naqlari", "Ilmlar va



EZGULIKKA INTILGAN JAMIYAT farovon va barqaror yashaydi

san'atlar fazilati" asarlarida inson va jamiyat, rahbar va bo'ysunuvchi tushunchalarini asoslaydi, ijtimoiy tuzumning o'ziga xos nazariyasini ishlab chiqadi. "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Hikmat ma'nolari", "Masalalarning tub mohiyati", "Musiqa haqida katta kitob" asarlarida olam va atrof-muhit, insonning boshqa ijtimoiy institutlar bilan aloqalari haqida fikr-mulohazalarini bayon etadi.

Uning bunday salmoqli ilmiy ishlarini e'tirof etgan ilmiy jamoatchilik keyinchalik Forobiyni "Ikkinchi ustoz" sifatida tan olib, ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasini yuksak baholagan.

Al-Forobiy inson faoliyatida baxtga to'g'ri bilim orqali erishiladi, deb ta'kidlaydi. U jamiyatni davlat bilan tenglashtiradi va uni tirik organizmga qiyoslaydi: "Fazilatli shahar sog'lom tana kabi bo'lib, unda barcha a'zolar bir-biriga yordam berib, umumiy hayotni saqlaydi".

Mutafakkir ijtimoiy-falsafiy qarashlarni tahlil qilar ekan, tadqiqot predmeti sifatida davlatni tanlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy tuzumning eng oliy maqsadi - davlat, jamiyat hayoti davlat orqali ro'yobga chiqadi. Davlat - insonlarning baxtga erishish yo'lida o'zaro munosabatlarning

Qozog'istondan maktub

eng mukammal shakli. Shu nuqtai nazardan, "fazilatli shahar" deganda aholisi bir-biriga eng oliy kamolotga, ya'ni haqiqiy baxtga erishishda yordam beradigan jamiyat tushuniladi. Agar davlat rahbari johillik yo'lga kirs, u albatta o'zining yomon niyatlarini amalga oshirish yo'llarini izlay boshlaydi. Bunday holda uning faoliyatida hokimiyatparastlik, mansabparastlik, kibr-havo, boylik orttirish va nafsoniy lazzatlarga berilish ustunlik qiladi.

Alloma insoniyatning baxt va kamolotga erishish yo'lidagi intilishlarini tahlil qilib, shunday deydi: "Agar odamlar baxtga erishishda bir-biriga yordam bersa, bunday jamiyat fazilatli jamiyat bo'ladi. Agar xalqlar ham o'zaro hamkorlik qilib yashasa, butun olam fazilatli bo'lishi mumkin".

Abu Nasr al-Forobiy Turkiston zaminida, xususan, O'tror hududida tavallud topgan buyuk mutafakkir sifatida jahon falsafiy tafakkuri tarixida alohida o'rin egallaydi. Uning ilmiy-falsafiy merosi insoniyatning ma'naviy kamolotga intilish g'oyalari chuqur nazariy asoslash bilan birga, jamiyat taraqqiyoti va inson tafakkurining yuksalishida muhim metodologik manba sifatida namoyon bo'ladi.

Pirimbek SULEYMOV, professor, "Al-Forobiy" ilmiy-tadqiqot markazi direktori. Jadira KAZIYEVA, Al-Forobiy nomidagi Qozog' Milliy universiteti katta o'qituvchisi.

Mulohaza uchun mavzu

Derazadan chiqindi uloqtirish - befarosatlik

Ko'pqavatli uyda yashayman. Bu hayot tarzi menga faqat qulaylik emas, balki javobgarlik ham yuklaydi. Ayniqsa, farzand tarbiyasi masalasida. Shuning uchun bolalarimga qayta-qayta tayinlayman: "Bir dona pista po'chog'ini ham derazadan tashqariga tashlamanglar!"



Bu gap kimgadir ortiqcha ehtiyotkorlikdek tuyulishi mumkin. Aytaylik, 16 yoki 25-qavatdan kimdir beparvolik bilan nimadir uloqtirdi. Hatto yengil, arzimaday tuyulgan bo'sh plastik idish ham balandlikdan tushganda o'qdek tezlikka ega bo'ladi. Agar u inson boshiga kelib tegsa-chi? Bu shunchaki tartibsizlik emas - hayot uchun xavf.

Afsuski, bu xavf faqat nazariyada emas. Ko'pqavatli uylarda yashovchi ayrim hamshaharlarimizning bunday e'tiborsizligiga bir necha bor guvoh bo'lganman. Kimdir chiqindi uloqtiradi, kimdir nos tuflaydi, hatto aytishga uyalarli bo'lgan boshqa holatlar ham uchraydi. Achinarlisi, bunday odamlar o'z qilmishini oddiy holdek qabul qiladi. Go'yoki "hech kim ko'rmadi", "menga nima" degan kayfiyat hukmron.

Aslida bu muammo odob-axloq, shahar madaniyati, qo'shnichilik munosabatlari bilan bog'liq. Derazadan chiqindi uloqtirish - bu faqat chiqindi tashlash emas. Bu o'zgalarga nisbatan hurmatsizlik, "mendan keyin nima bo'lsa bo'lsin", degan tafakkurning oqibati.

Yaqinda Toshkent shahriga borgandim. Bir mahallada bo'ldimki, ko'p qavatli uylar atrofi chinidek toza. Atrofga qarab ishonimg kelmaydi: bir dona pista po'chog'i ham yo'q, qog'oz, plastik yoki

sigareta qoldiqlari ko'rinmaydi. Buning sababini shu yerda yashovchi ukamdan so'radim. Uning aytishicha, har bir uyga kamera o'rnatilgan. Tartib, nazorat va javobgarlik bor.

Xursand bo'ldim. Demak, istak va nazorat bo'lsa, madaniyatni shakllantirish mumkin.

Kamera - bu faqat jazolash vositasi emas. Ular odamlarni o'ylashga majbur qiladi. "Meni ko'rishyapti", "javob beraman", degan fikr kishini o'z-o'zidan tartibga chaqiradi. Vaqt o'tib qo'rquv emas, odatga, keyin esa madaniyatga aylanadi.

Masalan, bir mahallada har kuni bolalar maydonchasiga chiqindi tashlanardi. Kattalar ham, yoshlar ham beparvo edi. Keyin mahalla faollari tashabbusi bilan kamera o'rnatildi. Ikki oydayoq vaziyat o'zgardi. Ikkinchi oyda umuman chiqindi tashlash holatlar kamaydi. Uchinchi oyga kelib, odamlar bolalarini o'zi ogohlantira boshladi.

Albatta, hamma narsani kamera bilan hal qilib bo'lmaydi. Asosiy masala - tarbiya. Ota-ona farzandiga kichiklikdan "bu sening uying, bu sening shahring" degan tushunchani singdirishi kerak. Chiqindini derazadan uloqtirish o'z uyingni iflos qilish bilan barobar. Axir ko'pqavatli turarjoy ham katta bir uy.

To'liq SIDDIQOV.

1395-yilda Amir Temur rus yerlariga yurish qilishga qaror qildi. Endigina qad rostlayotgan Moskva knyazligini osongina tor-mor etishi mumkin edi. Chunki Amir Temur imperiyasi ulkan hududlarni qamrab olgan bo'lib, u fath etgan yerlarda qirq milliondan ortiq aholi yashardi. Rus yerlari esa u vaqtda faqat Moskva knyazligi doirasida bo'lib, boshqalar uchun hech qanday qiziqish uyg'otmasdi. Uning hududlarini vayron qilish, keyin esa ularni nazorat ostiga olish Amir Temurning rejasida yo'q edi.

Amir Temur nega rus yerlarini zabt etmagan?

Sarkardaning rus yerlariga yurish qilishiga ayrim sabablar bor edi. Uning azaliy dushmani To'xtamishxon rus hududlarida yashirib yurgandi. To'xtamishni o'rmon va dashtlardan qidirib yurishni istamadi. Qulayroq yo'lni tanlab, rus bo'yab hujum qilishni niyat qildi. To'xtamish ruslar to'lagan boj hisobiga yashardi.

Sohibqiron rus chegaralariga yarim million askar bilan keldi. Mamlakat ayanchli ahvolda bo'lib, dushmanga munosib zarba bera olmadi. Rus knyazliklari o'sha paytda atigi yigirma mingga yaqin askar to'play oldi. U paytlar rus erkaklari qurolni mahorat bilan ishlata olmasdi. Buning ustiga, rusda dahshatli o'lat tarqalib, aholining yarmi qirilib ketgandi.

Ba'zi tarixchilarning fikricha, rusni aynan diplomatik aloqalar Amir Temur bosqinidan qutqarib qolgan. Knyazlar Sohibqironga sovg'a-salomlar bilan maxsus elchilarni yubordi. Qolaversa, Amir Temurning To'xtamishga bo'lgan adovati begunoh xalqni qirib tashlash darajasida katta emasdi.

To'xtamish ustidan qozonilgan g'alaba bir tomondan Temur davlatining shimoliy chegaralari xavfsizligini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchidan, rus sharqshunoslari M.Solovoyov, V.Bartold, A.Yakubovskiyar ta'kidlaganidek: «Temurning To'xtamish ustidan qozonilgan g'alabasi nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa, balki Rossiya uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'ldi». "Temurning 1395-yilda



To'xtamishni tor-mor etishi va undan keyin Oltin O'rda shaharlarining vayron qilinishi unga (Oltin O'rdaga) tuzatib bo'lmaz zarba berdi. Bu bilan Temur obyektiv ravishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki rus uchun ham foydali ish qildi".

Xushnud ABDULLAYEV, Amir Temur maqbarasi mudiri.



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori Abdurashid Jabborovning ta'kidlashicha, viloyatimiz hududiga qaytgan turnalar guruhi 8-, 25- va 31-mart kunlari kuzatilgan.

Turnalar

Bulutlar atrida yomg'irning hidi, Parqu hayajonda osmon turlanar. Zavq bilan zavqlanar zamin vujudi, Turnalar qaytdilar, qaytdi turnalar.

Zangori borliqda zangori hislar, Kamalak mislida tovlanar nurlar. Ko'kdan ko'z olmas sog'ingan ko'zlar, Turnalar qaytdilar, qaytdi turnalar.

Xushxabar xushlanib aylar tamanno, Zaminning ko'ksida umid o'rmalar. Borliqni to'ldirib qo'hna sallomno, Turnalar qaytdilar, qaytdi turnalar.

To'kinlik, nasiba akslanar ko'rkam, Xayrli xabarga jarchi turnalar. Xayru barakaga to'lg'usi o'lkam, Turnalar qaytdilar, qaytdi turnalar.

Suyundiq Mustafo NURATOIY.

- Bolalar, qarang, men sizlarga nima olib keldim? - Sharif ovozi eshitib, uydan yugirib chiqqan qizaloqlari Nafisa va Sanobarga qo'lidagi sovg'alarni tutdi. - Nafisa qizim, mana bu senga, mana bunisi Sanobarxonga.

- Ura! - Boshiga qoqigul va endi kur-tak otgan tol xivichdan gulchambar taqib olgan qizaloqlar xur-sandchilikdan osmonga irg'ishlab qiyqirishdi.

...Singlisi vafot etgach, Sharif yetim qolgan besh yashar jiyani Sanobarni o'gay ona qo'li-da xo'rflanmasin, deb qaramog'iga olgandi.

- Xotin, Sanobarxon endi biz bilan yashaydi. Nafisa bilan opa-singil bo'lishadi. O'z bolangday qara, endi uning onazori yo'q!

Jiyanini maslahatlashmay, olib kelishini kutmagan xotini eriga yovqarash qildi.

- Yetimchaga rahmingiz kelibdi-da!
- Axir u jigirim!
- Qanaqa jigar u, endi begona-ku! -
- Ovozining o'chir, tovuqmiya, - Sharifning jahli chiqdi. - Agar u haqida yana biror nojo'ya gap gapirsang, tilingni sug'irib olaman.



Eridan bunday javobni kutmagan Zamira zarda bilan o'rnidan turib, tashqariga chiqib ketdi: «Hali ko'ramiz».

- Aya, qarang, dadam menga nima olib keldi? - otasi sovg'a qilgan yangi ko'ylakni kiyib, huzuriga quvonib kirib kelgan Nafisani ko'rgan Zamira qaviyotgan ko'rpachani qo'yib, qiziga

Turmush chorrhalarida

qaradi.

- Voy, buncha chiroyli! Sanobarga ham olib kelibdimi? - Zamira qoshini chimirdi. Shu payt qo'lida tog'asi keltirgan sovg'ani hali kiyib ko'rishga ulgurmagan Sanobar ko'rindi.

- Ha, senga ham sovg'a olib kelibdimi, tog'ang, - Zamira uning qo'lidan ko'ylakni yulqib oldi. - Boshqa bitgan balo bo'lding, o'zimizni tashvishimiz yetmagandek, endi sening yetimchani boqishimiz qoluvdi.

Go'dak ko'ngli o'ksigan Sanobar ho'ngrab yig'lab yubordi.

...Hech kim ona mehri-ga zor bo'lmasin ekan. Oradan necha yillar o'tdi, Sanobar yangasi Zamira xo'rlab, boshiga ne-ne kunlarni solganini unuta olmadi. Lekin qanchalik xo'rflanmansin, ona o'rnida onalik qilgan ayolga nisbatan ko'nglida kek saqlamadi. Xayolini kotibaning ovozi

bo'ldi:

- Sanobar Tojiyevna mashina keldi!

- Hozir, - u Zamira yangisini tug'ilgan kuni bilan tabriklash uchun unga atab olgan qimmatbaho ko'ylakni olib mashinaga chiqdi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 856 nusxada chop etildi. Buyurtma Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

